



KAFILLIK SHARTNOMASI VA UNING HOZIRGI BOZOR SHAROITLARIDA AHAMIYATI

Rasulov Bekzod Boymuratovich, Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti “Ijtimoiy va tabiiy fanlar” kafedrasida dotsenti, PhD, *E-mail:*

Lawstroy83@mail.ru, *Tel.:* +998998468625

Narzullayev Mirjahon Jumanazar o‘g‘li, Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti Biznesni boshqarish ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi,

E-mail: mirjahonnarzullayev018@gmail.com

Annotatsiya: Fuqarolik huquqiy munosabatlarda kafillik instituti zamonaviy bozor sharoitlarida muhim huquqiy kategoriya sifatida e‘tirof etiladi. Iqtisodiyotda va iste‘mol bozorida kreditlashtirish darajasi yuqori bo‘lgan bugungi kunda nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolada kafillik munosabatlarini huquqiy tartibga solishning muhim jihatlari tahlil qilindi. Kafillik munosabatlarida yuzaga keladigan muammolar echimi bo‘yicha taklif va mulohazalar bayon qilindi.

Kalit so‘zlar: kafillik, kafil, majburiyat, importyor, kreditor, qarzdor, ma‘muriy javobgarlik kodeksi, bank kafolati, kafil bank, shaxsiy kafillik, kafillik shartnomasi.

ГАРАНТИЙНЫЙ ДОГОВОР И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В СОВРЕМЕННЫХ РЫНОЧНЫХ УСЛОВИЯХ

Аннотация: В гражданских правоотношениях институт гаранта признается важной правовой категорией в современных рыночных условиях. Сегодня,



при высоком уровне кредитования в экономике и на потребительском рынке, это крайне важно.

В данной статье проанализированы важные аспекты правового регулирования поручительских отношений. Были представлены предложения и комментарии по решению проблем, возникающих в гарантирующих отношениях.

Ключевые слова: гарантия, поручитель, обязательство, импортер, кредитор, должник, Кодекс об административной ответственности, банковская гарантия, банк-гарант, личное поручительство, договор поручительства.

WARRANTY AGREEMENT AND ITS IMPORTANCE IN MODERN MARKET CONDITIONS

Abstract: In civil legal relations, the guarantor institution is recognized as an important legal category in modern market conditions. Today, with a high level of lending in the economy and the consumer market, it is extremely important.

This article analyzed the important aspects of legal regulation of guarantor relations. Proposals and comments on the solution of problems arising in the guarantor relationship were presented.

Key words: guaranty, guarantor, obligation, importer, creditor, debtor, code of administrative responsibility, bank guarantee, guarantor bank, personal guaranty, guaranty contract.

Kirish

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi, fuqarolar manfaatlarining qondirilishi bevosita kreditlashtirish siyosatiga o'zviy bog'liq holda rivojlanmoqda. Ushbu munosabatlarda fuqarolik qonunchiligining qo'llanishi



huquqiy kafolatni ta'minlaydi. Bu mulkiy munosabatlarni amalga oshirishda asosiy ahamiyat kasb etadigan masalalardan biridir.

“Kafillik shartnomasi” degan tushuncha qonunchilikda azaldan mavjud bo‘lsa-da, uning asl mohiyati keyingi yillardagi kredit siyosatining rivojlanishi tufayli keng namoyon bo‘la boshladi. Ushbu shartnoma ko‘p asrlardan beri savdo, pul muomalasi munosabatlarida keng qo‘llanilib, o‘zaro ishonch va lafz odatlariga amal qilinib kelingan. Ya’ni, qarz shartnomalari hozirgidek, yozma ravishda tuzilmay, og‘zaki tuzilib, ko‘p holatlarda kreditor va qarzdor o‘rtasida ishonchli odam kafil bo‘lgan va bu hech bir hujjat bilan tasdiqlanmasa-da, kreditorning qarzni undirishiga kafolat hisoblangan. Aksariyat hollarda muayyan darajada mulkdor, tadbirkor yoki jamoada obru-e’tibori yuqori shaxslar kafil bo‘lgan.

Ish muomalasi odatlarini qo‘llash hozirgi qonunchiligimizda ham nazarda tutilgan bo‘lsa-da, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 292-moddasida¹ kafillik shartnomasi yozma shaklda tuzilishi kerakligi, yozma shaklga rioya qilmaslik kafillik shartnomasining haqiqiy bo‘lmasligiga olib kelishi belgilab qo‘yilgan. Kafillik shartnomasini yozma ravishda tuzish to‘g‘ridan-to‘g‘ri huquqiy oqibatlarini keltirib chiqaradi. Ya’ni, kreditor kafilning majburiyatlarini sudda alohida qo‘shimcha dalillar bilan isbotlashi shart bo‘lmaydi. Shartnoma va qarzdorning majburiyatlarni bajarmaganlik fakti etarli deb hisoblanadi.

Masalaning dolzarbligi shundaki, hozirga qadar ham fuqarolarimiz orasida bir-birlarini yaxshi taniganliklarini inobatga olib, og‘zaki qarz shartnomalari yoki kafillik og‘zaki ravishda belgilanishi bir qator huquqiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ya’ni, qarzdorning majburiyatlarini keyinchalik tan olmasligi, kafil kafillik haqidagi kelishuvni rad etishi kreditor oldida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Bundan tashqari, ayrim holatlarda qarzdorning majburiyatlarini bajargan kafil keyinchalik qarzdorning kafil bajargan majburiyatlarni kafilga bajarishi

¹ O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, Birinchi qism. <https://lex.uz/acts/111189>



noaniq holatlar yuz berishiga sabab bo'lmoqda. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bank orqali qarz olinmaganda agar taraflar kafillik orqali majburiyat baralishini ta'minlashni nazarda tutsa, qarzdor va kafilning tanish-bilishligi ba'zida qarzni undirishni qiyinlashtiradi.

Shuningdek, aholimiz orasida huquqiy madaniyatning yuqori darajada emasligi kafillik qilish ortidan yillar davomida mulkiy zarar ko'rib yurishiga olib keladigan muammolar paydo bo'lmoqda.

Aslida majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash usuli sifatida kafillik kreditor talablari qondirilishini huquqiy ta'minlash orqali huquqiy munosabatlarning yuzaga kelishi keyinchalik mulkdorning mulkiy zarar ko'rishining oldini oladi.

Bugungi kunda kafillik munosabatlari va kafillik shartnomalari bo'yicha muammoli holatlar yuzaga kelishining yana bir asosiy asosiy sababi - kafillik qilayotgan shaxsning moliyaviy savodxonlik darajasining etarli emasligidir.

Moliyaviy savodxonligi darajasi yuqori bo'lgan odam kafillik qilishdan oldin qarzdor shaxsning kreditor oldidagi majburiyatlarini, majburiyatlarni bajarishning muddatini, qarzdorning daromad manbayini hamda boshqa ma'lumotlarni tekshiradi.

Chunki kafillik qiluvchi shaxs kafillik shartnomasiga imzo qo'yarkan qarzdorning kreditor oldidagi majburiyatlarini to'liq yoki qisman miqdorda kafillik shartnomasida ko'rsatilgan shartlar va shakllar bo'yicha bajarishni o'z zimmasiga oladi. Buni qisqacha shunday tushuntirish mumkinki, kafillik qiluvchi shaxs bu qarzdor qarz majburiyatlarini bajara olmagan taqdirda uning kreditor oldidagi majburiyatlarini bajarishni kafolatlovchi shaxs hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi.

- Kafillik shartnomasi hamda kafilning huquq va majburiyatlarini,
- kafillik shartnomasi bo'yicha yuzaga keladigan muammolarni



-kafillik qiluvchi shaxslarning moliyaviy savodhonlik darajasini tadqiq qilishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot ishida analiz, sintez, formallashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va ularni muhokamasi.

Kafillik bir shaxs – qarzdor boshqa shaxs – kreditor oldidagi majburiyatni bajartirishning qonuniy shaklidir, shunga ko`ra kafillik shartnoma tuzilgan kundan boshlab kafil hamda qarzdor kreditor oldida hamda qarzdor kafilning kreditor oldida bajargan majburiyatlari uchun kafil oldida majburiyatga ega bo`ladi.

Rus olimi S.Vankaev ta`kidlashicha, kafillikning mavjudligi kreditorga qarz oluvchining qarz majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi munosabati bilan uning mulkiy yo'qotishlarini qoplash uchun qo'shimcha huquqiy imkoniyat yaratadi. Pul majburiyatlarini ta'minlashda kafillik kreditorga uchinchi shaxsning mol-mulkiga murojaat qilish orqali qarzni to'lash bo'yicha o'z talabini qondirish uchun bevosita imkoniyat yaratadi.²

Belorus olimi D.Z.Safarev kafillikning bekor bo'lishi haqida fikr bildirib, shunday deydi: kafolat shartnomasi bo'yicha kafil boshqa shaxsning kreditori oldida o'z majburiyatini to'liq yoki qisman bajarishi uchun javobgar bo'lishga majburdir. kafolat u bilan ta'minlangan majburiyatning bekor qilinishi bilan tugatiladi.³

Huquqshunos olim Ilvina Xazieva fikricha, kafillik - bu qarz oluvchining kredit yordamidan foydalanishga tayyorligi. Boshqacha qilib aytganda, agar qarz oluvchi qarzni to'lamasa, kafil uni qarzdorlik bilan birga kreditorga chiqarishga majburdir.

² <https://denuo.legal/ru/insights/news/F15/>

³ <https://etalonline.by/novosti/mnenie/poruchitelstvo-po-kreditnomu-dogovoru/>



Agar qarz oluvchi va kafil begona shaxslar bo'lsa, unda qarz qarzlari bo'yicha bir nechta shaxsga manfaatsiz holda yuk bo'lishi mumkin. Shunday bo'lsa-da, bu bankka mablag'ning to'liq qaytarilishini kafolatlaydi. Barcha mahsulotlar - mahsulotlar, qarz mablag'lari va mahsulotlar - kafolatlangan ko'rinishda javobgarning umumiy maqsadlari bo'lsa, kafillik to'g'ri keladi. Misol uchun, agar bu biznes sheriklari, turmush o'rtoqlar yoki bolalar uchun ipoteka oladigan otanonalar bo'lsa. Bunday hollarda, foyda aniq: kafil qarz oluvchi bilan bir xil tarzda kredit olishdan manfaatdor. Ular pulni teng ravishda ishlatishadi.

Agar kafil bank tomonidan chiqarilgan mablag'ni sarflamasa, faqat javobgarlikni o'z zimmasiga olsa, vaziyat noaniq.⁴

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 292-moddasida Kafillik shartnomasi bo'yicha kafil boshqa shaxs o'z majburiyatini to'la yoki qisman bajarishi uchun uning kreditori oldida javob berishni o'z zimmasiga oladi.

Kafillik shartnomasi kelgusida vujudga keladigan majburiyatni ta'minlash uchun ham tuzilishi mumkin⁵, deb mustahkamlangan.

Tadqiqot ishini tahlil qilishda asosiy e'tiborni kafillik shartnomasini tuzish, o'zgartirish, kafilning kafillikdan voz kechishi va kafillik shartnomasining bekor bo'lish asoslariga qaratish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksining 292-moddasi qoidalariga muvofiq shartnoma yozma ravishda tuziladi. Bunda kreditor, qarzdor va kafil shartnoma taraflari deb e'tirof etiladi. Agar qonunda belgilangan istisno holatlar ro'y bermasa, kafillik qarzdorning kreditor oldidagi majburiyatlarini bajarishning butun davrida saqlanib qoladi.

Kafillik shartnomasi boshqa shaxsning kreditori va kafil o'rtasida tuziladi, Kafillik shartnomasi bo'yicha majburiyatning mazmuni qarzdor asosiy

⁴ <https://sovcombank.ru/blog/kredit/poruchitelstvo-po-kreditu>

⁵ O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, Birinchi qism. <https://lex.uz/acts/111189>



majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganda kafilning qarzdor bilan birga kreditor oldida javob berish majburiyati hisoblanadi.

Kafillik alohida shartnoma bilan rasmiylashtirilishi, shuningdek kafillik to'g'risidagi shartlar ular bilan qaysi shartnoma majburiyatlari ta'minlanayotgan bo'lsa, shu shartnomaga kiritilishi mumkin. Bunday holda shartnoma kreditor, qarzdor va kafil tomonidan imzolanadi.

Kafillikka oluvchi shaxs kafillik majburiyatlaridan o'z hohishiga ko'ra kechib keta olmaydi, ammo, quyidagi holatlarda unga ushbu huquq berilishi mumkin:

- kreditor yoki qarzdor o'zgarsa;
- kafillik shartnomasi shartlari o'zgarsa;
- kreditor va qarzdor kelishgan holda kafilni o'zgartirishga qaror qilishsa.

Kafillikning bekor qilinishi ham shartnomadan va qonunchilik mazmunidan kelib chiqib amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 298-moddasiga muvofiq: kafillik bilan ta'minlangan majburiyat bekor bo'lgach, Kafillik bilan ta'minlangan majburiyat bo'yicha qarz boshqa shaxsga o'tkazilganida, agar kafil yangi qarzdor uchun javobgar bo'lish haqida kreditorga rozilik bergan bo'lmasa, shuningdek kafil ta'minlangan majburiyatni bajarish muddati kelganida kreditor qarzdor yoki kafil taklif qilgan tegishli ijroni qabul qilishdan bosh tortsa hamda kafillik muddati o'tganidan keyin kafillik bekor bo'ladi. Shuningdek, majburiyat kafilning roziligisiz javobgarlikning oshishiga yoki uning uchun boshqa noqulay oqibatlarga olib keladigan tarzda o'zgartirilgan taqdirda kafillik bekor bo'lishini ham qonunchilik nazarda tutadi.

Kafilning javobgarligi masalasiga to'xtaladigan bo'lsak, qarzdor kafillik bilan ta'minlangan majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda kafil va qarzdor kreditor oldida solidar tartibda javob beradi (basharti qonunda yoki kafillik shartnomasida kafilning subsidiar javobgar bo'lishi nazarda tutilgan bo'lmasa). Ya'ni, ular bajarilmagan qarz majburiyatlarini to'la hajmda



bartaraf etishga majbur bo'ladilar. Ushbu majburiyatni qarzdor yoki kafil tomonidan bajarilmasligi yohud bajarishdan bosh tortishi yuridik javobgarlikning boshqa turlarini qo'llashga olib keladi. Shu sababli kafil ham qarzdor qarz majburiyatlarini bajarish imkoniga ega bo'lmasa yoki uni bajarishdan bosh tortsa, kreditor oldidagi majburiyatlarni bajarishga oqilona muddatlarda ijobiy munosabatda bo'lishi lozim.

Bunda kafil kreditor oldida qarzdor bilan baravar hajmda javob berib, foizlar, qarzni undirib olish bo'yicha sud chiqimlari va qarzdor majburiyatini bajarmagani yoki lozim darajada bajarmagani tufayli kreditor ko'rgan boshqa zararlarni to'laydi.

Kafil kreditorning talabiga qarshi qarzdor bildirishi mumkin bo'lgan hamma e'tirozlarni qo'yishga haqli. Hatto qarzdor o'z e'tirozlaridan voz kechgan yoki o'z majburiyatini tan olgan taqdirda ham kafil ushbu e'tirozlarga bo'lgan huquqini yo'qotmaydi.

Kreditor tomonidan da'vo bir vaqtning o'zida kafil va qarzdorga nisbatan qarzdor tomonidan asosiy majburiyat bajarilmaganligi munosabati bilan taqdim etilib, solidar javobgarlik to'g'risidagi qoidalarni qo'llash lozim bo'lgan hollarda, bunday javobgarlik faqat kafil yoki faqat qarzdorga yuklatilishi mumkin emas. Kafil va qarzdor kreditor oldida solidar javob berishlari kerak. Ushbu holatda qarzdor va kafil qarzdorning majburiyatlarini har biri alohida emas, balki, birgalikda qarz majburiyatining butun hajmi miqdorida javobgar bo'ladi.

Kafillik qiluvchining majburiyatlarini bajarmasligi ma'muriy tartibda alohida javobgarlikni keltirib chiqarishi ham mumkin. Kafillik qiluvchi shaxs majburiyatlarni bajarmagan taqdirda O'zbekiston respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 208-moddasiga muvofiq, kafilning yozma majburiyatni bajarmasligi, oldini olish uchun shaxsiy kafolat qo'llanilgan harakatlar ayblanuvchi



tomonidan sodir etilishiga olib kelgan bo'lsa ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradi.⁶

Ushbu normaga ko'ra, qarzdorning kreditor oldidagi qarz majburiyatini bajarmaganligi uchun kafillik qiluvchi shaxsni ham ma'muriy javobgarlik kutadi, ammo, bu bilan qarzdor o'z majburiyatkaridan soqit bo'lib qolmaydi yani kafillik qiluvchi shaxs qarzdorning kreditor oldidagi bajargan barcha majburiyatlari kafillik qiluvchi shaxs oldida ushbu majburiyatlarni bajarib beradi agar ushbu majburiyatlarni asl xolicha bajarishning iloji bo'lmagan taqdirda ushbu majburiyatlarni kafillik qiluvchi shaxsning foydasiga pul mablag'i yoki biron hizmatni bajarib berishi lozim agar qarzdor shaxs ushbu majburiyatlarni bajarishdn bosh tortsa kafillik qiluvchi shaxs o'z huquqlarini sud orqali talab qilishi va qarzdor shaxsni sudga berishi mumkin.

Hulosa va takliflar:

Birinchidan, zamonaviy bozor munosabatlarining chuqurlashishi, kreditlashtirish siyosatining ishlab chiqarish, tovarlar va iste'mol bozorida tobora mavqeining oshib borishi kreditor va qarzdor o'rtasidagi mulkiy munosabatlarda kafillik institutining rivojlanishi va keng tarqalishiga olib keldi.

Ikkinchidan, kafillik qarzdorning kreditor oldidagi majburiyatlarini bajara olmagan taqdirda uni bajartirishning qonuniy shakli hisoblanadi. Fuqarolarimiz kafillik qilishdan oldin o'zlarining moliyaviy savodhonlik darajasini oshirishsa hamda o'z huquq va majburiyatlarini to'liq anglab etishsa kafillik bilan bolg'liq muammoli vaziyatlar yuzaga kelish holatlari kamayishiga erishish mumkin deb hisoblaymiz.

Uchinchidan, bank kafolati bu kafilning hamda kreditorning oldidagi qarzdorning majburiyatlarining bajarilishi aniq bo'lgan kafillik shakli hisoblanadi, chunki banklar kafillik qilishdan oldin qarzdorning biron mol-mulkini garovga qo'yish va

⁶ Қаранг: Ўзбекистон Республикаси маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси 208-moddasi О'zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrda О'RQ-586 sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)



garov mulkini saqlash bilan bog‘liq nizolarning oldini olish maqsadida kafillik shartnomasiga rozilik bildiradi.

To‘rtinchidan, kafillikning yozma shaklda rasmiylashtirilishi u bilan bog‘liq huquqiy oqibatlarning taraflar o‘rtasida aynan yuz berishida huquqiy kafolatni oshiradi. Kafillik shartnomasiga oid qoidalarda ish muomalasi odatlarini uning shakliga nisbatan qo‘llamaslik – kreditorlar mulkiy huquqlarining dahlsizligini saqlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR VA MANBALAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, Birinchi qism.
<https://lex.uz/acts/111189>
2. O‘zbekiston Respublikasi ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi 208-moddasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrdagi O‘RQ-586 sonli Qonuni tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son)
3. <https://denuo.legal/ru/insights/news/F15/>
4. <https://etalonline.by/novosti/mnenie/poruchitelstvo-po-kreditnomu-dogovoru/>
5. <https://sovcombank.ru/blog/kredit/poruchitelstvo-po-kreditu>
6. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Bank_kafolati
7. https://finlit.uz/uz/articles/credit/obligations-as-https_surety/